

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



MUTAXASSISLIK FANLARI BO‘YICHA MAGISTRATURAGA

KIRISH SINOVLARI DASTURI VA BAHOLASH MEZONI

5A140501 – Kimyo (fan yo‘nalishlari bo‘yicha)

mutaxassisligi uchun

Buxoro – 2021

Annotatsiya

Dastur 5A120501 – Kimyo (fan yo‘nalishlari bo‘yicha) magistratura mutaxassisligiga kiruvchilar uchun 5110300 – Kimyo ta‘lim yo‘nalishining 2017/2018-o‘quv yilida tasdiqlangan o‘quv rejasidagi fanlar asosida tuzilgan.

Tuzuvchilar:

Avezov H.T. - BuxDU Organik va fizkolloid kimyo kafedrasi dotsenti, kimyo fanlari nomzodi, dotsent

Umarov B.B. - BuxDU Organik va fizkolloid kimyo kafedrasi professori, kimyo fanlari doktori

Nazarov S.I. - BuxDU Umumiy va noorganik kimyo kafedrasi mudiri, texnika fanlari nomzodi, dotsent

Sharipov M.S. - BuxDU Umumiy va noorganik kimyo kafedrasi dotsenti, texnika fanlari nomzodi

Taqrizchilar:

Niyozov L.N. - Buxoro davlat tibbiyot instituti “Tibbiy kimyo” kafedrasi mudiri, fizika-matematika fanlari falsafa doktori

Axmedov V.N. - Buxoro muhandislik texnologiyasi instituti “Kimyo” kafedrasi mudiri, texnika fanlari nomzodi

Dastur Buxoro davlat universitetining 2021 yil 3 iyuldagi 19 sonli Kengashida ko‘rib chiqilgan va maqullangan.

KIRISH

Ushbu dastur “Noorganik kimyo”, “Analitik kimyo”, “Fizikaviy kimyo”, “Organik kimyo” fanlarining dasturlarida belgilangan talabalarga kimyoviy elementlar xossalarini davriy qonun va davriy sistemasi asosida modda tuzilishining hozirgi zamon ma’lumolariga suyangen holda, nazariy kimyo tushunchalarini qo’llab tushuntirish, kimyo fanidan professional tayyorgarlikka asos solish, kimyodagi fanning sifat tavsifidan miqdoriy tassavvurlarga o’tishni amalga oshirish, modda tuzilishi to’g’risidagi hozirgi zamon tushunchalari, moddalarning tuzilishi va tarkibini ularni tashkil qilgan elementlarning davriy sistemada joylashgan o’rniga bog’liqligini talabalarga o’rgatish, modda va kimyoviy jarayonlar to’g’risidagi ta’limot nazariyasini o’zlashtirish va amaliyotda qo’llay bilishni o’rgatish, noorganik kimyoning nazariy asoslarini hozirgi zamon rivojlanish yo’llari, ularning fandagi va texnikadagi ahamiyati haqida chuqur bilim berish va shu sohada talabalarda mantiqiy xulosalar chiqarishni o’rgatish, kimyoning nazariy qonunlaridan turli masalalarni xal qilishda uddaburonlik bilan foydalanish qobiliyatini rivojlantirish, kimyoviy reaksiyalar mahsuldorligini aniq hisoblash, turli hisoblash ishlarida ma’lumotnomalardan unumli foydalana olish, termodinamik kattaliklarning taqribiy qiymatlarini topish, turli holat diarammalaridan to’g’ri foydalanish, kimyoviy jarayonlarning kinetik kattaliklarini aniqlash, kimyoviy jarayonlarning berilgan mexanizmlari uchun kinetik tenglamalarni hisoblab topish, talabalarni analizning umumiy va nazariy asoslari, kimyoviy, fizik-kimyoviy va fizikaviy metodlarning asosiy prinsiplari bilan tanishtirish, murakkab moddalar aralashmasi analizini zamonaviy fan yutuqlari asosida talabalarga tushuntirish, kimyoviy muvozanat turlari haqida yetarli darajada bilim berish, analitik va metrologik tavsiflar haqida talabalarda yetarlicha ko’nikma hosil qilish, Arrenius elektrolitik dissotsiatsiya, Lyuis, Brensted-Louri kislota-asosli nazariyalari va Ostvaldning suyultirish, bufer eritmalar, tuzlar gidrolizi qonuniyatlarini mukammal o’rganish, elektrolit va noelektrolit eritmaları va ularning xossalari haqida yetarli darajada bilimlarga ega bo’lish, aralashmalar tarkibini birin-ketin va sistematik analiz qilish sxemalarini tuzishni talabalarga o’rgatish, alohida olingan elementlar, kompleks birikmalarning tuzilishi xossalarini o’rganish va mantiqiy xulosalar chiqarish, organik birikmalarning kimyoviy tuzilish nazariyasi va sinflanishi, har bir sinf organik moddalariga mansub bo’lgan muhim vakillarning fizikaviy, kimyoviy xossalari va xalq xo’jaligidagi ahamiyati, organik moddalarning xossalari bilan ularning tuzilishi o’rtasidagi o’zaro bog’liqlik, yerda organik moddalarning hosil bo’lishi va ularning o’simlik va hayvonlar dunyosining paydo bo’lishi hamda rivojlanishidagi roli, hozirgi zamon organik kimyosining yutuqlari, O’zbekiston va jahonda organik kimyo fani va organik sintez sanoatining yutuqlari, organik moddalarning o’rganishda kimyoviy bog’lanishning hozirgi zamon nazariyalari asosida olingan natijalardan foydalana olish, organik moddalarning xossalari va reaksiyaga kirishish qobiliyati

to'g'risidagi xulosalarni tushunish, organik moddalarni tozalash, uning sifat (elementar) tarkibini va molekulyar massasini aniqlashni, miqdoriy analiz qilishni, brutto formula chiqarishni, unda u yoki bu funksional guruhlarning borligini, moddalarning to'yingan, to'yinmagan yoki aromatik birikmalarga mansubligini aniqlay olish, kristallash, vakuumda haydash, suv bug'i bilan haydash va ekstraksiya qilish usullarini bilish, yupqa qavatli va kolonkali xromatografiyadan foydalana olish, organik moddalarning xossalari bilan ularning tuzilishi o'rtasidagi bog'liqni, tuzilishiga asoslanib reaksiyalarning kechish va mexanizmlarini xarakterlay bilish, organik kimyoning yutuqlarini (tabiiy xomashyo asosida yangi materiallar yaratish, oziq-ovqat mahsulotlar o'rnida sintetik ashyodan foydalanish, oziq-ovqat mahsulotlari, dorivor moddalar, vitaminlar va h.k.larni sintezi) vatanimiz fani yutuqlarini aniq misollarda ko'rsata bilish kabi vazifalarni qamrab olgan bo'lib, bakalavriat talabalarining to'rt yil davomida yuqoridagi vazifalardan kelib chiqqan holda olgan bilimlarini attestatsiyadan o'tkazish maqsadida tuzilgan.

I. “NOORGANIK KIMYO” fani bo'yicha

Atom tuzilishi.

Kimyoviy elementlarning kelib chiqishi. Engil elementlar yadroviy sintezi. Og'ir elementlar yadroviy sintezi. Kimyoviy elementlar klassifikatsiyasi.

Vodorodsimon atomlarning tuzilishi. Kvant mexanikasi asosiy prinsiplari. Atom orbitallar.

Ko'p elektronli atomlar. Elektron o'tish va ekranlash. Asosiy holatdagi atomlar konfiguratsiyalarining tuzish prinsipi. Atomlarning asosiy xarakteristikalar.

Molekulalar tuzilishi va kimyoviy bog'lanish.

Lyuiss strukturalari. Oktet qoidasi. Bog'lar xossalari va struktura. Valent qobig'i elektron juftining itarilish modeli.

Valent bog'lanish usuli. Vodorod molekulas. Gomoyadroli ikki atomli molekulalar. Ko'p atomli molekulalar.

Molekulyar orbitallar usuli. Nazariyaga kirish. Gomoyadroli ikki atomli molekulalar. Geteroyadroli ikki atomli molekulalar. Molekulyar orbitallar usuli nuqtai nazaridan bog'larning xossalari.

Ko'p atomli molekulalarning molekulyar orbitallari.

Oddiy qattiq jismlar strukturasi.

Sharsimon joylashishlar. Elementar katakcha va kristall strukturalar tasnifi. Zich sharsimon joylashishlar. Zich joylashishlardagi bo'shliqlar.

Metallar strukturalari. Politiplar. Zich bo'lmagan joylashishli strukturalar. Metallar polimorfizmi. Metallar atom radiuslari. Qotishmalar.

Ion birikmalar. Ion birikmalar asosiy struktur tiplari. Ion birikmalar tuzilishidagi ba'zi qonuniyatlar. Ion bog' energiyasi. Panjara entalpiyasi va kristallarning xossalari.

Molekulalar simmetriyasi.

Simmetriya nazariyasiga kirish. Simmetriya amallari va simmetriya elementlari. Molekulalar simmetriyasining nuqtaviy guruhlari.

Simmetriya nazariyasini qo'llanilishi. Qutbli molekulalar. Xiral molekulalar. Orbitallar simmetriyasi. Xarakterlar jadvali va simmetriya turlarining belgilanishi. Tavsif jadvali tahlili. Molekulyar orbitallarni tuzish.

Kislota va asoslar.

Brensted bo'yicha kislotalilik. Suvda kislota-asosli muvozanat. Erituvchining effekti.

Brensted bo'yicha kislotalilik o'zgarishidagi qonuniyatlar. Akvakislotalar kuchi o'zgarishidagi qonuniyatlar. Oddiy oksikislotalar. Suvsiz oksidlar. Polioksobirikmalar hosil bo'lishi.

Lyuis bo'yicha kislotalilik. Lyuis kislota va asoslariga misollar. Bor va uglerod guruhi elementlari kislotalari. Azot va kislorod guruhi elementlari kislotalari. Galogenlar molekulalari Lyuis kislotalari sifatida.

Lyuis kislota va asoslari klassifikatsiyalari. Reaksiyalarining asosiy turlari. Qattiq va yumshoq kislotalar va asoslar. Kislotalilik termodinamik parametrlari. Erituvchilar kislota va asos sifatida.

Oksidlanish va qaytarilish.

Elementlarni ajratib olish.

Oksidlanish qaytarilish potentsiallari. Oksidlanish-qaytarilish yarimreaksiyalari. Kinetik faktorlar.

Eritmada oksidlanish-qaytarilish barqarorligi. Suv ishtirokidagi reaksiyalar. Disproporsiyalanish. Atmosfera kislorodi bilan oksidlanish.

Potensial qiymatlarni diagramma ko'rinishida ifodalash. Latimer diagrammasi. Frost diagrammasi. rN ga bog'liqlik.

d – metallar kompleks birikmalari.

Tuzilishi va simmetriyasi. Komplekslar tarkibi va tuzilishi. Eng tipik ligandlar va nomenklatura. Izomeriya va xirallik.

Bog‘lanish va elektron tuzulishi. Kristall maydon nazariyasi. To‘rtkoordinatsion komplekslar elektron tuzilishi. Ligand maydon nazariyasi.

Komplekslar reaksiyalari. Kompleks hosil bo‘lishi reaksiyalari muvozanati.

Elementlar sistematik kimyosi.

Vodorod. Vodorod kimyoviy element sifatida. Vodorod yadrosi xossalari. Vodorod atomi va ioni. Molekulyar vodorod xossalari va reaksiyalari.

Vodorod birikmalari klassifikatsiyasi. Molekulyar birikmalari. Ion gidridlar. Metallsimon gidridlari.

Vodorod birikmalarining olinishi va xossalari. Sintezi va barqarorligi. Vodorod ishtirokidagi reaksiyalarning mexanizmi.

Bor guruhi elementlarining elektronodefitsit gidridlari. Diboran. Tetragidroborat –ioni. Alyuminiy va galliy gidridlari.

Uglerod guruhi elementlari. Silanlar. German, stannan va plyumban.

15-17 guruh elementlari elektronortiqcha birikmalari. Ammiak. Fosfin, arsin va stibin. Suv. Vodorod sulfidi, selenidi va telluridi. Vodorod galogenidlari.

Metallar

Metallar umumiy xossalari. Davriy sistema s-bloki metallari. Elementlar tabiatda tarqalganligi va oddiy moddalarining olinishi. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari. Binar birikmalari. Kompleks hosil qilishi. Past oksidlari, elektridlar va alkalidlar.

Davriy sistemad-bloki metallari

Elementlar tabiatda tarqalganligi va oddiy moddalarining olinishi. Yuqori oksidlanish darajalari. Oraliq oksidlanish darajalari. Metall-metall bog‘li d-elementlar birikmalari. Nodir metallar. Metallar sulfidlari va sulfid komplekslar.

12-guruh elementlari. Elementlar tabiatda tarqalganligi va oddiy moddalarining olinishi. Koordinatsion ximiya.

Davriy sistema r-bloki metallari.

Elementlar tabiatda tarqalganligi va oddiy moddalarining olinishi. 13 guruh metallari. Qalay va qo‘rg‘oshin. Vismut.

Davriy sistema f-bloki metallari.

Elementlar tabiatda tarqalganligi va oddiy moddalarining olinishi. Lantanoidlar va aktinoidlar.

Bor va uglerod guruhlari.

Elementlar. Bor guruhi. Elementlar tabiatda tarqalganligi va oddiy moddalarining olinishi. Borning elektrmanfiy elementlar bilan birikmalari. Bor klasterlari. Yuqori boranlar va borgidridlar sintezi. Metallboranlar. Karboranlar.

Uglerod guruhi (14 guruh). Elementlar tabiatda tarqalganligi va oddiy moddalarining olinishi. Olmos va grafit. Uglerodning elektrmanfiy elementlar bilan birikmalari. Karbidlar. Kremniy va germaniy. Kremniyning kislorod bilan birikmalari. Alyumosilikatlar. Silitsidlar.

Azot va kislorod guruhlari.

Elementlar. Azot guruhi. Elementlar tabiatda tarqalganligi va oddiy moddalarining olinishi. Azot aktivatsiyasi. Galogenidlar. Oksidlari va suvli eritmalaridagi oksidlanish –qaytarilish reaksiyalari. Azotning fosfor bilan birikmalari.

Kislorod guruhi. Elementlar tabiatda tarqalganligi va oddiy moddalarining olinishi. Galogenidlari. Kislorod va r-elementlar oksidlari. Metallar oksidlari. Metallar sulfidlari, selenidlari va telluridlari. Sikllar va klasterlar tutuvchi r-elementlar birikmalari.

Galogenlar va nodir gazlar.

Elementlar. Galogenlar (17 guruh). Elementlar tabiatda tarqalganligi va oddiy moddalarining olinishi. Xossalarning o'zgarishidagi qonuniyatlar. Psevdogalogenidlar. Galogenlararo birikmalari. Galogenid komplekslar va poligalogenidlar. Galogenlarning kislorod bilan birikmalari. Ftorouglerodlar.

Nodir gazlar. (18 guruh) Tabiatda tarqalishi va olinishi. Nodir gazlar birikmalari.

Noorganik kimyoning zamonaviy muammolari.

Kompleks birikmalar elektron spektrlari. Spektroskopik termlar. d^2 - konfiguratsiyalar termlari.

Komplekslarning elektron spektrlari. Ligand maydon o'tishlari. Zaryad o'tish sohalari. Tanlash qoidasi va intensivlik. Lyuminessensiya. f –elementlar komplekslari spektrlari. Aylanma dixroizm. Elektron parmagnit rezonans.

M-M bog' tutgan birikmalar tuzilishi va spektrlari. ML_5 fragmenti. Biyadroli komplekslar.

d-Metallar kompleks birikmalari reaksiya mexanizmlari.

Ligandlar almashinish reaksiyalari. Reaksiya qobiliyat: misollar va ba'zi qonuniyatlar. Mexanizmlar klassifikatsiyasi.

Kvadrat komplekslardagi almashinish. Almashinuvchi gruppalar nukleofilligi. Aktivlangan kompleks tuzilishi. k_1 mexanizm.

Oktaedrik kompleksdagi almashinish. Tezliklar qonuni va uning tahlili. Oktaedrik komplekslar aktivatsiyasi. Stereoximiya. Ishqoriy gidroliz. Izomerlanish reaksiyalari. Reaksiyalarning qiyinroq mexanizmlari: alkil grupp migratsiyasi va SO ning kiritilishi.

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari.

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari klassifikatsiyasi. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari nazariyasi. Oksidlanishli birikish.

Fotokimyoviy reaksiyalar.

Tez va sekinlashtirilgan reaksiyalar. d – d-o‘tishlar yoki zaryad ko‘chishi bilan boradigan reaksiyalar. Metall-metall bog‘li sistemalardagi o‘tishlar.

Asosiy guruh elementlarining metallorganik birikmalari.

Klassifikatsiyasi, nomenklaturasi va strukturasi.

Nomenklaturasi. Vodorodli birikmalar bilan solishtirish. Tuzilishi va bog‘lanish. Barqarorligi. Kimyoviy xossalari.

1, 2, 12 guruh birikmalarining ion va elektronefitsit birikmalari. Ishqoriy metallar. Ishqoriy-er metallari. Rux guruhi.

Bor guruhining elektronefitsit birikmalari. Boroorganik birikmalar. Alyuminiyorganik birikmalar. Galliy, indiy, va talliy birikmalarining metalloorganik birikmalari.

Uglerod guruhining birikmalari. Kremniyorganik birikmalar. Germaniy, qalay va qo‘rg‘oshinning metallorganik birikmalari.

Azot guruhining elektroortiqcha elementlari. Mishyak, surma va vismutning metallorganik birikmalari. Zanjirli va qo‘shbog‘li birikmalar.

d vaf-blok elementlarining metallorganik birikmalari.

Bog‘lanish. Valent elektronlari sonini hisoblash. Ligandlarning oksidlanish darajasi va formal zaryadi.

d –bloki metallarining karbonil komplekslari. Uglerod oksidi ligand sifatida. Karbonillar sintezi. Strukturasi. Xossalari va reaksiyalari.

Boshqa metallorganik birikmalar. Vodorod va zanjirsimon uglevodorod ligandlari. Siklik poliyen komplekslar. d vaf-bloki metallorganik birikmalarining reaksion qobiliyati.

Kataliz

Asosiy prinsiplari. Katalizatorlar to‘g‘risidagi asosiy ma’lumotlar. Katalizatorlar xossalari.

Gomogen kataliz. Katalitik sikllarning asosiy bosqichlari. **Geterogen kataliz.** Geterogen kataliz tabiati. Kataliz bosqichlari.

Qattiq jismlar tuzilishi va xossalari

Asosiy prinsiplari. Defektlar. Nostexometrik birikmalar. Atom va ionlar diffuziyasi.

Oksidlar va ftoridlarning asosiy struktur tiplari. 3d-metallar monooksidlari. Yuqori oksidlari. Shishalar.

Sulfidlar va ularga turdosh birikmalarning asosiy struktur turlari. MS_2 qavatsimon birikmalari va interkalyatsiya. Shevrel fazalari.

“ANALITIK KIMYO” fani

Analitik kimyo fani, tadqiqot doirasi, maqsadi va vazifalari

“Analitik kimyo” fani turli murakkab ob’ektlar (suv, tuproq, havo, qotishmalar, geologik, biologik, atrof-muhit ob’ektlari va hok.) analizini amalga oshirishni o’rganadi. Fanning maqsadi kimyoviy analizning nazariy asoslari va metodlarini ishlab chiqish, atrof-muhitdagi har xil ob’ektlarning elementar kimyoviy tuzilishini, sifat va miqdoriy aniqlashni ta’minlaydigan metodlar ishlab chiqish va o’rgatishdan iborat. Analizni umumiy nazariy asoslarini, kimyoviy, fizik-kimyoviy va fizikaviy metodlarining asosiy prinsiplari bilan tanishtirishdan va analitik kimyoning hozirgi zamon rivojlanish yo’llari, fan, texnika va sanoatdagi ahamiyati, atrof-muhit ob’ektlari ekologik muammolarini ko’rsatib berishdan iborat.

Kimyoviy analizning metrologik asoslari

Asosiy metrologik tushunchalar va tavsiflar: o’lchash, o’lchash usullari va asboblari. O’lchash natijalariniing haqiqiylikini ta’minlaydigan asosiy prinsiplar va uslublar. Kimyoda matematik ifodalar, metrologik tushunchalar va tavsiflar. Analizdagi xatoliklar klassifikatsiyasi: sistematik, tasodifiy, qo’pol, absolyut va nisbiy xatoliklar. Analizning asosiy bosqichlari. Analiz uchun usul tanlash va analiz sxemasini tuzish. Analiz usulining asosiy tavsiflari: natijalarning to’g’riligi va takrorlanuvchanligi, sezgirlik ko’effitsiyenti, miqdoriy aniqlashning quyi va yuqori chegaralari. O’lchash natijalarini matematik statistika yo’li bilan qayta ishlash. O’rtacha qiymat, dispersiya, standart chetlanish, nisbiy standart chetlanish, qayta takrorlanuvchanlik, aniqlik darajasi, extimollik chegarasi va intervali. Kimyoviy analiz usulining asosiy tavsiflari. Sezgirlik, qayta takrorlanuvchanlik, Styudent ko’effitsiyenti, ishonchlik extimollogining funksiyasi, ishonchlilik

chegarasi, aniqlik, tanlanuvchanlik. Dispersiya, taqsimlanish mezonlari, normal taqsimlanish qonuni. Regression analiz metodi, graduiruvkali grafik chizish uchun matematik statistika usulidan foydalanish. To'g'rilikni aniqlash usullari: standart namunalardan foydalanish, qo'shimchalar qo'shish metodi, namuna tortimini o'zgartirish usuli, boshqa usullar bilan solishtirish va hokazo. Darajali grafik tenglamasini tuzishda kichik kvadratlar usulidan foydalanish, qo'shish usullari torimni o'zgartirish usuli, boshqa metodlar bilan solishtirish usullari. Standart namunalar tayyorlash, shahodatlash va ulardan foydalanish. Analitik laboratoriyalarni metrologik shahodatlashdan o'tkazish. Namuna olish va namuna tayyorlash nazariyasi va amaliyoti. Analizga birlamchi namuna olish. Namuna va analiz ob'ekti. Gomogen va geterogen tarkibli namunalar olish. qattiq suyuq va gaz holatdagi moddalardan o'rtacha namuna olish usullari. Namunani analiz qilinadigan shaklga o'tkazish, bosim va harorat ta'sirida parchalash va hok.

Kimyoviy muvozanatning asosiy turlari

Kimyoviy qaytar reaksiyalar. Massalar ta'siri qonuni. Analitik kimyoda muvozanatning asosiy turlari: kislota-asosli muvozanat, kompleks hosil qilish, oksidlanish-qaytarilish, cho'ktirish. Analitik va muvozanat konsentratsiya. Elektrostatik kuchlarning elektrolit tabiatiga va reaksiya qobiliyatiga ta'siri. Aktivlik, aktivlik koeffitsiyenti. Eritmaning ion kuchi. Chekli va kengaytirilgan Debay va Gyukkel qonunlari. Moddaning standart holatdagi aktivligi. Muvozanat konstantalari (termodinamik, konsentratsion va shartli) ular orasidagi bog'liqlik. Ko'p bosqichli reaksiyaning muvozanat konstantasi va uning bosqichlar bilan o'zaro bog'liqligi.

Kislota-asosli reaksiyalarda muvozanat.

Kislota va asoslar haqida hozirgi zamon tushunchalari. Brensted-Louri nazariyasi. Asosli va kislotali konstantalari. Har xil ko'rinishdagi protolitik eritmalar rN ni hisoblash. Protolitik kuchiga ta'sir etuvchi omillar. Induksion (ichki molekulyar vodorod bog'lanish) effekt, dielektrik doimiysi (molekulalararo vodorod bog'lanish). Ionlanish va dissotsilanish. Erituvchi va uning avtoprotoliz konstantasi bilan bog'liqligi. Erituvchilarning kislota-asos xossasi bo'yicha klassifikatsiyasi: aprotonli, protogenli, protofil. Lion va liat ionlar. Lyuisning elektron nazariyasi nuqtai nazaridan kislota va asos tushunchalari. Kreshkovning kislota asoslar to'g'risidagi proton-elektron-gidrid konsepsiyasi. Bufer eritmalar va ularning xossalari. Bufer sig'imi. Bufer sistemalarda rN ni hisoblash.

Kompleks hosil qilish reaksiyalarida muvozanat.

Analitik kimyoda ishlatiladigan komplekslarning turlari. Analitik ahamiyatga ega bo'lgan kompleks birikmalarning xossalari: barqarorlik,

eruvchanlik, rangdorlik, uchuvchanlik. Metalligandli o'zaro ta'sir tavsifi bo'yicha kompleks birikmalarning sinflanishi: bir va ko'p yadroli kompleks birikmalar. Bir ligandli va ko'p ligandli (uchlamchi aralash ligandli) kompleks birikmalar. Barqarorlik konstantalari (umumiy bosqichli). Hosil bo'lish funksiyasi. Kompleks birikmalar dissotsiatsiyasi. Kompleks birikmalar va qo'sh tuzlar. Umumiy va bosqichli barqarorlik, beqarorlik konstantalari. Xelatlar, ichki kompleks birikmalar. Xelatlar barqarorligini belgilovchi omillar: reagentlarning tuzilishi va ular tarkibidagi donor atomlar tabiati, sikllar soni va o'lchami, metall-ligand bog'ining tavsifi. Funksional analitik guruhlar, ularning kompleks hosil qilishida tanlab ta'sir etuvchanligi va rangli komplekslarning hosil bo'lishida xromofor guruhlarining roli. Kompleks hosil bo'lishiga ta'sir etuvchi omillar: markaziy atom va ligandning tuzilishi, komponentlar konsentratsiyasi, rN, eritmaning ion kuchi, harorat. Kompleks birikmalarni ishlatish yo'li bilan sezgirlik va tanlovchanlikni oshirish. Kompleks birikmalar va organik reagentlarni har xil analiz usullarida ishlatilish imkoniyatlari.

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari.

Elektrod potentsiali, Nernst tenglamasi. Standart va formal potentsiallar bilan bog'liqligi. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining yo'nalishi. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining mexanizmi. Analizda qo'llaniladigan asosiy organik va anorganik oksidlovchilar va qaytaruvchilar. Aniqlanadigan elementni oldindan oksidlash va qaytarish usullari.

Cho'ktirish reaksiyalari.

Eruvchanlik ko'paytmasi va eruvchanlik. Ularga ta'sir etuvchi omillar. Bo'laklab va sistematik cho'ktirish.

Ochish va identifikatsiyalash usuli.

Ochish va identifikatsiyalash usullarini tanlash va ularning vazifalari. Atomlar, ionlar, molekula va moddalarni identifikatsiyalash. Bo'laklab va sistematik analiz qilish. Guruh reagentlari va ularga qo'yiladigan talablar. Anorganik va organik moddalarni ochish va identifikatsiyalashning fizik usullari. Mikrokrystalloskopik analiz, pirokimyoviy analiz. Sifat analizining xromatografik usullari. Analizning ho'l va quruq usullari. Ajratish va konsentrlashning kimyoviy, fizik-kimyoviy va fizikaviy usullari. va konsentrlashning ekstraksion va xromatografik usullari. Gaz, suyuqlik va gaz-suyuqlik xromatografik usullari.

Miqdoriy analiz

Metodning mohiyati. Bevosita va bilvosita aniqlash usullari. Gravimetrik analizda xatoliklar. Aniqlashning umumiy sxemasi. Tortim, cho‘kmaning miqdori va eritmaning hajmi. Cho‘ktirilayotgan shaklga qo‘yiladigan talablar. Cho‘kmani eritmadan ajratish usullari. Tortilayotgan shaklga qo‘yiladigan talablar. Quritish va qizdirish jarayonida cho‘kma tarkibini o‘zgartirish. Amorf va kristall cho‘kmalar, yirik kristallarni olish sharoitlari. Gomogen cho‘ktirish, cho‘kmaning yetilishi. Cho‘kmaning ifloslanish sababalari. Birgalashib cho‘kishning sinflanishi (adsorbsiya, okklyuziya, izomorfizm). Nisbiy o‘ta to‘yinish. Birgalashib cho‘kishning afzalliklari va kamchiliklari. Termogravimetrik analiz. Analitik tarozilar, ularning turlari va sezgirliklari. Tortish texnikasi. Gravimetrik analizga misollar.

Titrimetrik analiz usullari

Titrimetrik analiz usullarining sinflanishi. Titrimetrik analizda ishlatiladigan reaksiyalarga qo‘yiladigan talablar. Titrimetrik aniqlashning turlari: bevosita va bilvosita titrlash. Titrimetrik analizda eritma konsentratsiyasini ifodalash usullari. Kislota-asosli titrlash. Titrlash egrilari. Titrlash sakramasi va unga ta’sir etuvchi omillar. Suvsiz muhitda kislota-asosli titrlash. Titrlashning indikator xatoliklari. Kislota-asosli indikatorlar. Kislota-asosli titrlashning amaliyotda ishlatilishi. Kislota, asos, kislotalar aralashmasini, asoslar aralashmasini titrlash. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari asosida titrlash. Titrlash egrilarini tuzish. Titrlash egrilariga ta’sir etuvchi omillar: kompleksning hosil bo‘lishi, vodorod ion konsentratsiyasi, ion kuchi. Indikatorlar. Titrlash xatoliklari. Amaliyotda ishlatilishi. Permanganometriya. Yodometriya. Bixromatometriya. Kompleksonometrik titrlash. Titrlash egrilarini tuzish. Titrlash xatoliklari. Aminopolikarbon kislotalar va ularning kompleksonometriyada ishlatilishi. Etilendiamintetraatsetat kislota va uning natriyli tuzlari-komplekson-III ning titrimetrik analizda ishlatilishi. Kompleksonometrik titrlashning amaliyotda qo‘llanilishi. Suvning qattiqligini aniqlash. Cho‘ktirish reaksiyasi asosida titrlash. Titrlash egriligini tuzish. Titrlash aniqligiga adsorbilanish hodisasining ta’siri. Titrlash egrisi tavsifiga cho‘kma eruvchanligi, konsentratsiya va haroratning ta’siri. Indikatorlar. Titrlash xatoliklari. Folgard, Mor, Fayans usullari. Titrlashning amaliyotda ishlatilishi.

Optik analiz usullari

Elektromagnit nurlanish spektri: Uning to‘lqin va korpuskulyar tabiati. Elektromagnit nurlanishni xarakterlovchi kattaliklar (to‘lqin uzunlik, chastota, to‘lqin soni, energiya). Elektromagnit nurlanish spektri.

Elektromagnit nurlar bilan modda orasidagi o'zaro ta'sir. Bu ta'sirlar natijasida moddada bo'ladigan fizikaviy jarayonlar. Spektroskopik usullar va ularning turlari. Spektr oluvchi asbob, tuzilishi, optik sxemasi. Spektrometrni xarakterlovchi kattaliklar: ishlash sohasi, chiziqli dispersiya, ajratib ko'rsatish kuchi, yorug'lik kuchi. Elektromagnit nurlarni qabul qilgichlar: inson ko'zi, fotoplastinka, bolometr, termoelementlar, fotoelementlar, fotoelektron ko'paytirgichlar, fotoqarshiliklar, fotodiodlar, zaryad orqali bog'langan asboblari, fotodiodlar lineykasi. *Molekulyar spektroskopiya usullari.* Modda tomonidan yorug'lik nurining yutilishi. Buger-Ber –Lambert qonuni. Optik zichliklarning additivlik xossasi. Yorug'lik yutilishining molyar koeffitsiyenti. Buger-Ber –Lambert qonunidan chetlanish va uning sabablari. Fotometrik reaksiyalar. Fotometrik reaksiyalar orqali moddani aniqlashning bevosita va bilvosita usullari. Fotometrik analizda ishlatiladigan birikmalar va ularning yutilish spektrlari. Fotometrik reaksiyalarning keskinligi va uni oshirish yo'llari. Miqdoriy analizning fotometrik usullari. Xalaqit beruvchi komponentlar bo'lmagan vaqtda moddalarni aniqlashning absolyut fotometrik usullari. Bitta moddani aniqlash usullari. Tadqiq qilinayotgan va standart rangli eritmalarining optik zichliklarini taqqoslash usuli. Molyar yorug'lik yutish koeffitsiyentining o'rtacha qiymati bo'yicha aniqlash usuli. Darajalash grafigi orqali aniqlash. Qo'shimcha qo'shish orqali aniqlash. Spektrofotometrik usulning metrologik xarakteristikalar. Aniqlanadigan konsentratsiyaning quyi chegarasi. O'lchash natijalarining takrorlanishi. Optik zichlikning optimal oralig'i. Sezgirliги. Tanlash (selektivlik). Selektivlikni cheklaydigan omillar. Spektral va fizik- kimyoviy xalaqitlar. Fotometrik titrlash. Differensial spektrofotometriya. Spektrofotometrik usulning qo'llanilish sohalari. Oddiy fotometrning tuzilishi, asosiy qismlari va ishlash prinsipi.

Atom-absorbsion spektrometriya

AAS usulining asoslari. Atomlarning optik nurlarni yutishi. Atom bug'ining optik zichligi. Birlamchi nurlanish mabarlari; g'ovak katodli va elektrodsiz razryad lampalar va ularning tuzilishi. G'ovak katodli lampadagi jarayonlar va nurlanishning hosil bo'lishi. Erkin atomlarning manbalari; alanga, elektrotermik pech. Alanga hosil qiluvchi gorelkaning tuzilishi. Namunani alangaga kiritish. Alanganing ustunligi va kamchiliklari. Elektrotermik atomizator, tuzilishi va ishlash prinsipi. Elektrotermik atomizatorning ustunligi va kamchiliklari. Atom-absorbsion spektrometr. Optik (spektral) xalaqitlar; fon hosil qiluvchi nurlanish, fon nurlanishining yutilishi. Fonning signalini ajratish. Fizik-kimyoviy tabiatga ega bo'lgan xalaqitlar; atomlashning chalaligi va ionga aylanish. Xalaqitlar bilan kurashish usullari; temperatura maromini rejalashtirish va spektroskopik buferlardan foydalanish. Miqdoriy analiz usullari; tashqi standartlar (darajalash grafigi), qo'shimcha qo'shish. Usulning sezgirliги, aniqlanadigan konsentratsiya oralig'i. Qo'llanish sohalari.

Atom-emission spektrometriya

AES usulining asoslari. Atomlarning asosiy va qo'zg'algan holatlari. Atomlarning Bolsman qonuniga ko'ra sathlarga taqsimlanishi. Energetik sathlar orasidagi o'tishlar va spektr chiziqlarning hosil bo'lishi. Tanlash qoidalari. Spektr chiziqlarni xarakterlovchi kattaliklar: chiziqning joyi, intensivligi, yarimkengligi. Atomlash va qo'zg'atish manbalari: alanga, elektr yoyi va uchquni, induktiv bog'langan plazma. Nurlanish manbalarining xarakteristikalar, temperaturasi, ustunligi, kamchiligi, qo'llanish sohalari. Atom-emission spektrometr tuzilishi va ishlash prinsipi. Spektr olish. Atom emission analiz haqida tushuncha. Sifat va miqdor analizlari. Lomakin-Sheybe formulasi. Tashqi standart, ichki standart (gomologik juft chiziqlar) va qo'shimcha qo'shish usullari. Optik xalaqitlar: atomlar tomonidan chiqarilayotgan nurni qo'zg'almagan shunday atomlar tomonidan yutilishi, fonning nurlanishi va yutilishi, spektr chiziqlarining ustma-ust tushishi. Fizik-kimyoviy xalaqitlar: atomlashtirishning to'laqonligi, atomlashtirgichning temperaturasi, atomlarning ionga aylanishi, matritsa modifikatorlari. Usulning metrologik xarakteristikalar: sezgirlik, aniqlanadigan konsentratsiya oralig'i, natijalarning takrorlanishi. Qo'llanish sohalari. *Infraqizil (IQ) spektroskopiya*. Ikki atomli molekulaning tebranishi. Ko'p atomli molekulalarning tebranishi. Tebranish sathlari. Xarakteristik chastotalar. Infraqizil spektrofotometr, asosiy qismlari va ularning vazifalari. Infraqizil yutilish spektri, yutilish polosasi uning chastotasi (tebranish soni) va intensivligi. Moddaning IQ spektri va uning molekula tuzilishi bilan aloqasi.

Molekulyar lyuminessensiya

Lyuminessensiyaning ta'rifi, turlari va boshqa nurlanishlardan farqi. Molekulyar lyuminessensiyaning asosiy xarakteristikalar. Lyuminessensiya va lyuminessensiyaning qo'zg'atish spektrlari. Lyuminessensiyaning energetik va kvant chiqishlari. Lyuminoforlar. Organik molekulalarning fluoressensiya xossasiga ega bo'lishini ta'minlovchi shartlar. Qo'zg'algan molekuladagi elektron o'tishlar, fluoressensiya va fosforessensiya spektrlarining hosil bo'lishi. Asosiy qonuniyatlari: Kasha qoidasi, Stoks-Lommel qonuni, Levshin qoidasi (ko'zgu simmetriyasi). Lyuminessensiyaning qo'llanilishi. Lyuminessensiyaning intensivligi va lyuminoforming konsentratsiyasi. Muhim lyuminessent organik reagentlar. Noorganik va organik moddalarning miqdorini aniqlash. Lyuminessent analizning spektrofotometrik analizdan ustunligi va kamchiliklari. Xemilyuminessensiya hodisasi va uning analizda ishlatilishi. Molekulyar lyuminessent analizda ishlatiladigan asboblari va texnik vositalar.

Elektrokimyoviy analiz usullari

Elektrokimyoviy analiz usullarining umumiy tavsifi va sinflanishi. Elektrokimyoviy zanjir. Indikatorli elektrod va solishtirma elektrodlar.

Elektrokimyoviy muvozanat potentsiali. Tok o'tayotganda elektrokimyoviy zanjirlarda kuzatiladigan xodisalar: kuchlanishning qarshilik ta'sirida pasayishi, konsentratsion va kinetik qutblanishlar. Elektrokimyoviy analiz usullarining sezgirligi va tanlanuvchanligi.

Elektrogravimetrik analiz

Metodning qo'llanilish soxalari, qulayligi va kamchiliklari. Doimiy elektrod potentsiali va doimiy tok kuchida elementning ajralishi. Ichki elektroliz metodi, uni mikroelementlarni konsentrlash va aniqlashda qo'llanilishi. Ishchi elektrodning doimiy potentsiali va doimiy tok kuchida simob va qattiq elektrodslarni qo'llash orqali elementlarni ajratish. Elektrolitik ajratishda, kompleks hosil bo'lishdan foydalanish. O'ta sof materiallar analizida simob katodidan foydalanish.

Bevosita potentsiometriya

Potensialni o'lchash. Nernst tenglamasi. Qaytar va qaytmas oksidlanish-qaytarilish sistemalari. Indikatorli elektrodslar. Ionometriya, ion selektiv elektrodslar, sinflanishi. Ionometriyaning amaliyotda ishlatilishi. Eritmada ionlar konsentratsiyasini va rN ni aniqlash. Titrlash jarayonida elektrod potentsialining o'zgarishi. Ekvivalent nuqtani aniqlash usullari. Potensiometrik titrlashda ishlatiladigan reaksiya turlari. Potensiometrik titrlashning amaliyotda ishlatilishi. Kislota va ishqorlar

Kulonometriya

Kulonometriyaning nazariy asoslari. Faradey qonunlari. Elektr miqdorini aniqlash usullari. Bevosita va bilvosita kulonometrik analiz (kulonometrik titrlash). Kulonometrik titrantni ichki va tashqi generatsiyalash. Kulonometrik titrlashning boshqa titrimetrik usullarga nisbatan afzalliklari va kamchiliklari. Kulonometrik titrlashning amaliyotda qo'llanilishi.

Konduktometriya

Bevosita va bilvosita konduktometrik usullar. Past va yuqori chastotali konduktometriya. Konduktometrik bo'g'in (yacheyka) va ishlatiladigan elektrodslar. Konduktometrik titrlash egri chiziqlari va ularga ta'sir etuvchi omillar. Konduktometrik usullarning amaliyotda qo'llanilishi.

Voltamperometriya

Voltampermetrik usullarning sinflanishi. Indikatorli elektrod va solishtirma elektrodslar. Simob elektrodining afzalliklari va kamchiliklari. Voltampermetriya egriligi (polyarogramma)ni olish va tavsiflash. Kondensatorlik, migratsion va diffuzion toklar. Chekli, diffuzion tok. Polyarografiya. Ilkovich tenglamasi. Polyarografik to'lqin uchun Ilkovich-Geyrovskiy tenglamasi. Yarim to'lqin

potensial va unga ta'sir etuvchi omillar. Polyarografik sifat va miqdoriy analiz. Voltamperometrik analiz usullarining takomillashtirilgan xillari.

Amperometriya

Amperometrik titrlash, usulning mohiyati. Indikatorli elektrodlar. Indikatorli elektrod potensialini tanlash. Bir va ikki indikatorli qutblangan elektrodlar yordamida amperometrik titrlashlar, titrlash egrilarining ko'rinishlari. Cho'ktirish. Kompleks hosil qilish va oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining ishlatilishi. Polyarografik va amperometrik analiz usullarining amaliyotda ishlatilishi.

Xromatografik analiz usullari

Xromatografiyaning mohiyati. Harakatli va harakatsiz fazalar haqida tushuncha. Harakatli va harakatsiz fazalar agregat holati, ajratish mexanizmi va ishlash mexanizmiga ko'ra xromatografik usullarning klassifikatsiyasi. Xromatogrammalarning olish usullari (elyuent, siqib chiqarish va frontal). Xromatogrammaning asosiy ajratish kattaliklari. Xromatografiyaning asosiy tenglamasi. Xromatografik ajratishning selektivlik va samaradorligi. Nazariy tarelkalar nazariyasi. Kinetik nazariya. Xromatografik analizni maqbullashtirish. Xromatografik sifat va miqdor analiz usullari.

Aktivatsion analiz

Aktivatsion analizning fizikaviy asoslari. Issiq neytronlarda o'tkaziladigan neytron aktivatsion analiz. Turg'un elementlarni radioizotoplarga aylantirish. Indikator radioaktiv nuklidlar. Aktivatsion chiqish. Radioizotoplarning yarimemirilish davri va radioaktivlik. Radioaktiv yemirilishning turlari. Aktivatsion analizning asbobi va radiokimyoviy usullari. Radioaktiv nurlanishni o'lchash detektirlash usullari. Ajratib ko'rsatishi yuqori bo'lgan gamma spektrometr va uning tarkibiy qismlari. Ko'p kanalli analizator. Gamma spektrning hosil bo'lishi va ko'rinishi. Spektrning ko'rinishiga ta'sir etuvchi jarayonlar. Gamma spektrometrning muhim xarakteristikalar. Miqdoriy analizning absolyut va nisbiy usullari. Standart va namunani nurlantirish. Topish chegarasi va aniqligi. Xalaqit beruvchi yadro reaksiyalari. Neytron aktivatsion analizning (NAA) qo'llanilishi. Geokimyo, kosmokimyo va atrof muhit ob'ektlarini analiz qilish. Biomeditsinaga qo'llash. Neytron aktivatsion analizning boshqa usullardan ustunligi.

Mass-spektrometriya usuli

Mass-spektrometriya usuli, sinflanishi, analitik tavsiflari, ionlanish manbalari. Detektorlar; Faradey elektrometri va elektron ko'raytirgich. Organik va noorganik kimyoda qo'llaniladigan mass-spektrometrlarning farqi. Mass-spektrometriyaning noorganik moddalarning element tarkibini aniqlashda qo'llanilishi. Organik moddalarning molekulyar massasini topish.

“FIZIKAVIY KIMYO” fani

Kimyoviy termodinamika asoslari

Asosiy tushunchalar: termodinamik sistema, izolyatsiyalangan sistema, yopiq sistema, ochiq sistema, gomogen va geterogen sistemalar, uzluksiz sistema, sistemaning xolati, termodinamik parametrlar, termodinamik jarayon, xolat funksiyasi, aylanma jarayon, izobar, izoterm, adiabat, izoxor, izobar-izoterm va izoxor-izoterm jarayonlar, qaytar va qaytmas jarayonlar. Intensiv va ekstensiv kattaliklar.

Ideal gaz qonunlari: Klapeyron-Mendeleyev, Boyle-Mariott, Sharl-Gey-Lyussak. Universal gaz doimiysi. Xolat tenglamalari va termik koeffitsiyentlar: termik kengayish koeffitsiyenti, bosim ortishining koeffitsiyenti, izotermik siqilish koeffitsiyenti. Termik koeffitsiyentlarning o‘zaro bog‘lanishi.

Issiqlik, temperatura, bosim, ichki energiya, ish, intensivlik faktorlari, termometrik shkala, absolyut temperatura, termometrlar.

Gazlarning kinetik nazariyasining asosiy tenglamasi (Bolsman tenglamasi). Gazlarning issiqlik sig‘imi. Issiqlik sig‘imining erkinlik darajasi bilan bog‘liqligi.

Real gazlar. Van-der-Vaals tenglamasi. Gazlarning kondensatlanishi. Kritik nuqta. Bug‘ va gaz orasidagi farq. Keltirilgan bosim, hajm va temperaturalar.

Kimyoviy termodinamikaning vazifasi. Fenomenologik (klassik) termodinamika, nomuvozanat jarayonlarning termodinamikasi, statistik termodinamika.

Termodinamikani birinchi qonunining ta‘riflari. Termodinamika birinchi qonunining matematik ifodasi, uning integral, differensial hamda xususiy ko‘rinishlari. Kalorik koeffitsiyentlar. Termodinamikaning birinchi qonunini kalorik koeffitsiyentlar orqali ifodalash.

Ideal gazning turli jarayonlardagi kengayish ishi, jarayon issiqligi va ichki energiyaning o‘zgarishi. Joul qonuni. Ideal gazning adiabata tenglamasi. Puasson tenglamalari. Entalpiya. Gess qonuni va undan kelib chiqadigan xulosalar. Termokimyo. Xosil bo‘lish va yonish issiqliklari. Issiqlik sig‘imining haroratga bog‘liqligi. Reaksiya ishqilik effektining haroratga bog‘liqligi. Kirxgof tenglamasi.

Termodinamikaning ikkinchi qonuni va uning ta‘riflari: Tomson (Kelvin), Ostvald, Klauzius, Karateodori. Entropiya tushunchasi. Karno sikli. Foydali ish koeffitsiyenti. Qaytar jarayonlar uchun termodinamikaning ikkinchi qonuni. Keltirilgan issiqlik va uning to‘liq differensial ekanligi. Entropiya ekstensivlik faktori ekanligi. Izolyatsiyalangan sistemalarda termodinamik jarayonning o‘z-o‘zicha borishini, yo‘nalishi va chegarasini belgilovchi umumiy ko‘rsatkich.

Maksimal ish tushunchasi. Energiyaning dissipatsiyasi. Entropiyaning tartibsizlik o'lchovi ekanligi.

Qaytmas jarayonlar uchun termodinamikaning ikkinchi qonuni. To'liq qaytmas jarayonlar. Qaytmas o'z-o'zidan boruvchi jarayonlar uchun izolyatsiyalangan sistemada, izotermik qaytar jarayonlar hamda siklik qaytmas jarayonlar uchun termodinamika ikkinchi qonunining ifodalari. Qaytar va qaytmas jarayonlar uchun termodinamika ikkinchi qonunining ifodasi. Termodinamika birinchi va ikkinchi qonunlarining umumlashgan tenglamasi.

Termodinamikaning 2-qonunini statistik asoslash. Bolsman tenglamasi. Sistema xolatining termodinamik ehtimolligi bilan uning entropiyasi orasidagi bog'lanish. Termodinamikaning 1-qonuni absolyut qonun ekanligi va termodinamikaning 2-qonunining statistik tabiati. Fluktuatsiyalar tushunchasi.

Turli jarayonlarda entropiyaning o'zgarishi.

Termik va kalorik koeffitsiyentlar orasidagi bog'liqlik.

Termodinamik potenciallar. Xarakteristik funksiyalar. Izobarik-izotermik va izoxorik-izotermik potenciallar. Gibbs va Gelmgols energiyalari. Gibbs- Gelmgols tenglamalari. Kimyoviy potensial.

Kimyoviy muvozanat

Massalar ta'siri qonuni. Muvozanat konstantalari. Kimyoviy reaksiyaning izoterma tenglamasi (Vant-Goff tenglamasi). Kimyoviy reaksiyaning izobarik va izoxorik tenglamalari. Kimyoviy moyillik. Real sistemalarning termodinamikasi. Lyuis-Rendall postuloti. Uchuvchanlik (fugitivlik) va aktivlik tushunchalari.

Termodinamikaning uchinchi qonuni. Nernstning issiqlik teoremasi. Plank postuloti. Absolyut entropiya. Plank postulotidan kelib chiqadigan xulosalar. Absolyut nolga erisha olmaslik prinsipi. Muvozanat konstantasini Temkin va Shvarsman usulida xisoblash. Nernstning issiqlik teoremasi va Plank postulotiga asoslanib, termodinamik funksiyalarning standart qiymatlari bo'yicha muvozanat konstantasini hisoblash.

Statistik termodinamika

Statistik termodinamika vazifalari. Makro va mikroxolatlar va termodinamik ehtimollik. Fazaviy fazo tushunchasi. Bolsman tenglamasi. Statistik termodinamikaning postuloti. Xolatlar bo'yicha yig'indi. Bolsman taqsimoti. Asosiy termodinamik kattaliklar uchun statistik ifodalar. Ularni holatlar bo'yicha yig'indi orqali ifodalash. Aralashish entropiyasi. Ilgarilama, tebranma, aylanma va elektron harakatlar xolatlari bo'yicha yig'indilar.

Chiziqli termodinamika

